

Ilmiy tadqiqot ishini olib borishda ilmiy maqola yozish strategiyasi

Oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriat va magistratura bosqichi talabalari hamda falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD)) va fan doktori (Doctor of Science (DSc)) ilmiy darajalariga da'vogar ilmiy izlanuvchilarning olib borayotgan yoki rejalashtirilgan ilmiy tadqiqot ishi doirasida ma'lum darajada belgilangan ilmiy ishlarni chop etib borishi zarur hisoblanadi.

Ilmiy izlanuvchilar tomonidan chop etiladigan ilmiy ishlarni asosiy qismini maqola va tezislar egallashini inobatga oladigan bo'lsak, quyida biz maqola va tezis o'rtasidagi farqlar bo'yicha qisqacha tushuncha berib o'tamiz:

Birinchidan, maqolaning ko'pincha to'liq ilmiy yoki tadqiqot ishlarini yoritib beradi. Odatda uzunroq bo'lib, 5 – 20 betlar atrofida yoki undan ko'p bo'lishi mumkin. Bunda tadqiqot natijalari, metodologiya, tahlil va xulosa kengroq ko'rib chiqiladi.

Tezisning hajmi esa qisqa, mazmunan ixcham formatda yoziladi. Odatda bir yoki ikki bet bo'lib, ilmiy konferensiyalarda nutq qilish uchun asosiy g'oyalarni qisqa, lo'nda va to'liq ifodalaydi.

Ikkinchidan, maqola aniq tuzilishi kirish, tadqiqot metodologiyasi, natijalar, muhokama va xulosalardan iborat. Maqolalarda chuqur tahlil va izlanishlar bilan birgalikda batafsil dalillar keltiriladi.

Tezisda faqat asosiy g'oyalar va eng muhim dalillar qisqacha ko'rsatiladi. Batafsil metodologiya yoki kengaytirilgan tahlillar kiritilmaydi.

Uchinchidan, maqolaning maqsadi ilmiy adabiyotlarga yangi bilimlar qo'shish, muayyan masala yoki mavzuni kengroq yoritishdir.

Tezisning maqsadi tadqiqotning asosiy fikrlarini qisqa formatda yetkazish va konferensiya yoki anjumanda taqdim qilish uchun mo'ljallangan.

To'rtinchidan, maqola odatda ilmiy jurnallarda, ilmiy to'plamlarda yoki nashrlarda chop etiladi.

Tezislar odatda ilmiy konferensiyalarda, seminarlarda taqdim etiladi va ularning materiallari anjuman to'plamlarida chop etiladi.

Beshinchidan, maqola to'liq ilmiy tadqiqot ishiga asoslangan bo'lib, chuqur ilmiy izlanishlar bilan bog'liq bo'ladi.

Tezis asosan kelajakda to'liq maqola yoki tadqiqotning qisqacha bayoni bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy izlanuvchilar tomonidan ilmiy tadqiqot ishini to'liq yoritib borish uchun ilmiy maqolalar asosiy o'rin egallashini inobatga oladigan bo'lsak, xalqaro darajada belgilangan ilmiy maqola yozish uchun umumiy tuzilma IMRAD (Introduction, Methods, Results, and Discussion) talablari asosida tayyorlanishi kerak.

IMRAD talablari asosida ilmiy maqola yozishni boshlashdan oldin tadqiqot doirasidan kelib chiqqan holda tadqiqotning muhimligi va dolzarbligini ifodalash uchun ilmiy asoslangan mavzu tanlab olinadi.

Maqolani avvalo IMRAD talablari asosida ilmiy maqola yozishda Introduction (Kirish) qismida tadqiqotning muhimligi va dolzarbligi, tadqiqotning maqsadi hamda mazkur mavzu doirasida oldin bajarilgan ishlar va yozilayotgan maqolaning ulardan farqi bo'yicha ilmiy asoslangan holda aniq, qisqa va lo'nda tushuntirish bo'lishi kerak.

Ilmiy maqolani yozishda ikkinchi qismida esa tadqiqot dizayni ya'ni tadqiqotning qanday yo'nalishda olib borilganini yozing (masalan, eksperimental, kuzatuv, aralash usul), tadqiqotda ishtirok etganlar yoki ishlatilgan ma'lumotlar haqida batafsil ma'lumot, vositalar va usullar (masalan, anketa, dasturiy ta'minot, tajribalar), tahlil usullari (masalan, statistik tahlil) bo'yicha ma'lumotlar beriladi.

Keyingi Results (Natijalar) qismida tadqiqot natijalari, vizual taqdimot (jadvallar, grafikalar, va rasmlar natijalar) hamda obyektivlik ya'ni natijalarda shaxsiy izoh yoki muhokamalarni qo'shmang, faqat aniqlangan ma'lumotlar keltiriladi.

Ilmiy maqolaning so'ngi qismi ya'ni Discussion (Muhokama)da natijalarning talqini (natija nimani anglatishi), oldingi tadqiqotlar bilan solishtirish, amaliy ahamiyat (hayotda qaysi sohada ishlatilishida), cheklovlar (tadqiqotda mavjud kamchiliklarini keltirib o'tgan holda kelgusi tadqiqotlarda qanday

yo'naltirishi mumkinligini tushuntirish) hamda xulosada esa muhokamani umumlashtirib, tavsiyalar berish bilan ilmiy maqola ham yakunlanadi.

Ilmiy maqola yozishda IMRAD talabining tuzilmasi mantiqiy va izchil bo'lishi shart. Har bir qism o'z o'rnida aniq va qisqacha yozilishi muhim ko'rsatkichlardan hisoblanadi.

Endi ilmiy maqolalar yozishning mazmunijihatini tashki etuvchi 5 qoida bo'yicha to'xtalsak, ilmiy maqola yozish tahlil, ijodkorlik va aniqlikni talab qiladi. Quyida maqolalarni yozishda e'tibor qaratish kerak bo'lgan asosiy qoidalar keltirilgan:

Birinchi qoida. Ilmiy maqola yozishdan avval, maqsadni aniq belgilab olinadi. Ilmiy maqolani yozish tartibidagi asosiy tuzilmani kirish (mavzuning dolzarbligi va maqsadi), tadqiqot metodologiyasi (foydalanilgan usullar), natijalar va muhokama (erishilgan natijalarni tahlili va ahamiyati) hamda xulosa (asosiy xulosalar bilan birgalikda amaliy yoki nazariy tavsiyalar) o'z ichiga oladi.

Ikkinchi qoida. Ilmiy maqola yozishda ilmiy uslub asosida yozish zarur hisoblanadi. Ya'ni odatiy tilda emas, ilmiy tilda yozgan holda emotsional keltirishdan qochish kerak. To'g'ri terminologiyadan foydalanib, qisqa va barcha tushunarli gaplar keltirib o'tish ijobiylikni oshiradi. Keltirilayotgan har bir fikr dalillar bilan asoslanishi lozim.

Uchinchi qoida. Tadqiqotni qo'llab-quvvatlaydigan statistik ma'lumotlar va misollarni keltirganda har bir ma'lumotga manbalar ko'rsatilsin. Bu ishonchlilikni oshiradi. Maqoladan oldin yozilgan maqolalar, tezislar yoki ilmiy ishlarni tahlil qilib, o'ziga xos nuqtai nazarni bildirish kerak.

To'rtinchi qoida. Ilmiy maqolani yozishda e'tiborga yana bir kerakli qismi har bir qismga alohida e'tibor berishdir. Masalan:

Sarlavha – qisqa, aniq va jozibali bo'lishi;

Annotatsiya – maqolaning asosiy mazmunini qisqa qilib bayon qilishi;

Xulosa va tavsiyalar – aniq, qisqa va ta'sirli bo'lishi zarur.

Beshinchi qoida. Maqolani bir necha marta qayta o'qib chiqish va texnik xatolarni ko'rib chiqqan jarayonida tuzatib borish, xulosalarini tadqiqot natijalariga

mos kelishini tekshirish, to'g'ri formatlashga amal qilish (shrift, paragraflar, manbalar ko'rsatish va h.k.) zarur hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda ilmiy izlanuvchilarga misollar orqali ilmiy maqola yozish uchun tezkor va samarali yondashuv zarur. Bu yerda maqola yozishni osonlashtiradigan asosiy qadamlar va sirlar bilan beriladi:

Avvalombor ilmiy maqolani yozishdan oldin mavzuni aniq tanlay olish kerak. Ahamiyatli va dolzarb mavzuni tanlash – maqolaning yarmi yozilgan bilan teng hisoblanadi. Mavzuni zamonaviy xalqaro so'zlar bilan kengaytirish maqolaning ahamiyatini oshiradi. Masalan, "Ta'limda menejment" emas, "Ta'limda rahbarlik va menejment usullari: zamonaviy yondashuvlar".

Ikkinchidan ilmiy maqolada yoritilishi kerak bo'lgan tadqiqotni 30-40 daqiqa davomida internetdan tezkor manbalarni o'qigan holda ochiq ma'lumotlar, maqolalar va saytlar – asosiy faktlarni yozib olish kerak hisoblanadi. Ilmiy maqolani yozish jarayonida ChatGPT yoki boshqa sun'iy intellekt vositalaridan foydalanib qisqa izlanishlar qilish ham maqolaning zamonaviyligini oshiradi.

Uchinchi e'tiborga olish kerak bo'lgan qismlardan yana biri ilmiy maqola yozishda reja tuzib olish hisoblanadi. Bunda kirishda mavzu muammosi va dolzarbligini bayon qilinadi, asosiy qismda 2-3 asosiy fikrlar va dalillar keltiriladi hamda xulosada esa yakuniy fikr va takliflar beriladi. Qisqa va sodda rejalar yozuv jarayonini tezlashtiradi.

To'rtinchida ish jarayonini belgilab olinadi. Bunda vaqtni samarali boshqarish uchun ishlatiladigan Pomodoro texnikasi bo'yicha – 25 daqiqa yozing, 5 daqiqa dam olishdan foydalaniladi. Tezkor yozish, keyin tahrir qilish – yozish jarayonida to'xtab tahrir qilish ko'p samarali usul emas.

Beshinchidan, Ilmiy maqolani kirish qismi og'zaki qiziqarli savol yoki statistika bilan boshlash orqali dolzarb muammo yoki real voqea orqali mavzuni tushuntirish kerak. Misol uchun "Bugungi kunda o'quvchilarning 70 foizi raqamli texnologiyalar yordamida bilim oladi. Bu esa o'qituvchilarning yangi ko'nikmalarini talab qiladi."

Oltinchi qadamda esa ilmiy maqolaning asosiy qismi tezkorlikda yozish zarur. Har bir asosiy fikr uchun bir paragraflik dalillar keltiriladi. Raqamlar, misollar, qiziqarli faktlar kiritib borish ma'lumotni samaradorligini oshiradi. Misol uchun "Sun'iy intellekt yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish darajasi 30 foizga oshdi."

Yettinchi qadamda ilmiy maqolani yakuni ya'ni xulosasini qisqa va ta'sirli asosiy fikrlarni bayon qilinadi. Kelajakda bu mavzu qanday rivojlanishi mumkinligini aytib o'tiladi. Ilmiy maqolada ko'tarib chiqilgan tadqiqot bo'yicha keyin tadqiqotchilarga tavsiyalar berib o'tib ketiladi. Misol uchun "Ta'limni raqamlashtirish ta'limning kelajagi. Bu imkoniyatdan unumli foydalanish har bir mas'ulning vazifasidir."

So'nggi qadamda esa tayyorlangan ilmiy maqolani muallif tomondan tez tahrir qilish qoladi xolos. Bunda maqolani ovoz chiqarib o'qiladi hamda keraksiz gaplar va takroriy so'zlarni olib tashlanadi.

Yuqorida ma'lumotlar asosida ilmiy maqola tayyorlash tuzilmasi shakllanib boradi. Faqatgina tanlangan mavzu bo'yicha asoslangan ma'lumotlarni keltirgan holda ilmiy maqolani shakllantirish lozimdir.